IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
MAXSUS SON . VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIGIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI

DIRECTIONS FOR INCREASING PRODUCTION EFFICIENCY IN AGRICULTURE IN THE DIGITAL ECONOMY

Muallif	**Sobirova Munavvarxon Qahramonjonovna**
O’qish yoki ish joyi	**2nd stage master's degree from Andijan Institute of Agriculture and Agricultural Technologies**
Qabul qilindi	**25.09.2023**
Nashr qilindi	**25.09.2023**

ANNOTATSIYA

Iqtisodiy samaradorlik korxonaning kompleks tarzda xo‘jalik faoliyati natijasi va uning elementlarini o‘zaro ta’sirini aks ettiradi. Iqtisodiy samaradorlikni baholash mezonlari-bu korxonada qo‘llaniladigan iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash usullari va vositalarining natijadorligini baholash imkonini beruvchi mutlaq, nisbiy va dinamik samaradorlik ko‘rsatkichlari tizimi hisoblanadi.

АННОТАЦИЯ

Экономическая эффективность отражает результат хозяйственной деятельности предприятия в комплексном виде и взаимодействие ее элементов. Критерии оценки экономической эффективности – это система абсолютных, относительных и динамических показателей эффективности, позволяющая оценить эффективность методов и средств обеспечения экономической эффективности, используемых на предприятии.

ABSTRACT

Economic efficiency reflects the result of the economic activity of an enterprise in a complex form and the interaction of its elements. Criteria for assessing economic efficiency are a system of absolute, relative and dynamic performance indicators that allow you to evaluate the effectiveness of methods and means of ensuring economic efficiency used at the enterprise.

Kalit so‘zlar

Ishlab chiqarish samaradorligi, ishlab chiqarish korxonalari, resurs, oziq-ovqat strategiyalari, ixtisoslashtirish.

Ключевые слова

Эффективность производства, производственные предприятия, ресурс, продовольственная стратегия, специализация.

Key words

Production efficiency, production enterprises, resource, food strategies, specialization.

KIRISH. Jahon miqyosida ishlab chiqarish hajmini oshirish va iste’mol bozorini himoya qilishga qaratilgan oziq-ovqat strategiyalarini ishlab chiqish muhim masa-lalardan sanaladi. Zero, “... hozirgi vaqtda dunyoda 840 milliondan ortiq kishi, ya’ni har to‘qqiz odamning biri to‘yib ovqatlanmayapti, sayyoramiz aholisining 30 foizidan ziyodi to‘laqonli ravishda ovqatlanmaslik

muammosiga duch kelmoqda[1]. Shu bois, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan tibbiy me’yorga mos ravishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyatlari cheklangani o‘rtasidagi tafovutni yumshatish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalasi yildan-yilga keskinlashmoqda. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi eng asosiy omillaridan biri inson resurslari tomonidan boshqaruv tizimini yetarli darajada amalga oshirilmayotganligi xisoblanadi, shu nuktai nazaridan boshqaruv samaradorligi ma’sulyati cheklangan jamiyatni iqtisodiy samaradorligiga ta’sir etuvchi omil sifatida yuqori malakaga ega bo‘lgan oliy malumotlilarni sonini ko‘paytirish dolzarb xisoblanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti taraqqiyotining xozirgi bosqichida agrar isloxatlarni chuqurlashtirishga aloxida e’tibor berilmoqda. Sababi qishloq xo‘jaligi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida muxim xayotiy axamiyatga egadir. Chunki qishloq xo‘jaligining asosiy vazifasi mamlakat axolisini oziq-ovqat maxsulotlariga va sanoatni xom-ashyoga bo‘lgan talabini qondirishdir. Ushbu soxani mamlakatimiz ichki bozorlarida sanoat tovarlariga va xizmatlarga bulgan talablarni shakillanishidagi tutgan o‘rni xam o‘ta muxim axamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini o‘rganishga olimlardan A.Abdug‘aniev, A.A.Abdug‘anievlar, A.Ismoilov., O.Murtazoevlar, A. Zokirov, B.T. Salimov, B.B. Berkinov, E.J. Yusupov, Q. Yo‘ldoshev va Q. Muftaydinov., Yuldashev M. va boshqa olimlarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan. Bu ilmiy izlanishlarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni mohiyati, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini to‘la ochib berilgan.

«Iqtisodiy samaradorlik deganda bir yil davomida (ma’lum davrda) amalga oshirilgan tadbirlar tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar ular natijasida olingan sof foyda so‘mmasi bilan taqqoslanadi» - deb yozadi A.Abdug‘aniev, A.A.Abdug‘anievlar. (5.4. 256-bet)

A.Ismoilov., O.Murtazoevlar esa, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi umumiy ko‘rinishda ishlab chiqarishning natijasi, jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlari o‘rtasidagi nisbatini ifodalashini ta’kidlashadi. (6.11. 94-bet)

A. Zokirov «Samaradorlik samara bergan resurslar miqdoriga nisbatan tezroq o‘sadi. Shuning uchun ham «Samara» va «Samaradorlik» o‘rtasida bog‘lanish bo‘lib, bu ishlab chiqarishni rivojlantirish jarayonida namoyon bo‘ladi» .

NATIJALAR. Zamonaviy iqtisodiyotda tashqi muhitning rivojlanishi uning tez o‘zgaruvchan sharoitlari bilan tavsiflanadi, mahsulotlarning raqobatbardoshligi, chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, ichki va tashqi bozorlarda xizmatlar ko‘rsatilishi korxonaning umuman bozorda muvaffaqiyatli ishlashini belgilaydi. Iqtisodiy samaradorlik kategoriyasi orqali korxona xo‘jalik faoliyatining eng muhim xususiyatlari, ya’ni dinamik o‘zgaruvchanlik, yaxlitlik, raqobatbardoshlik, ko‘p o‘lchovlilik, biznesni rejalashtirish va hokazolar o‘z aksini topadi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda amalga oshirilayotgan jarayonlarning iqtisodiy samaradorligini baholash konsepsiyasi umumiy xarakterda bo‘lib, har qanday shakldagi va faoliyat yo‘nalishidagi tashkilotlarga nisbatan qo‘llaniladi.


Iqtisodiy samaradorlik korxonaning kompleks tarzda xo‘jalik faoliyati natijasi va uning elementlarini o‘zaro ta’sirini aks ettiradi. Iqtisodiy samaradorlikni baholash mezonlari-bu korxonada

[1] www.fao.org – Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги халқаро ташкилотининг расмий сайти маълумотлари.

qo‘llaniladigan iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash usullari va vositalarining natijadorligini baholash imkonini beruvchi mutlaq, nisbiy va dinamik samaradorlik ko‘rsatkichlari tizimi hisoblanadi.

MUHOKAMA. Qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlanishi, yetishtirilayotgan maxsulotlarning raqobatdoshligiga asoslanadi. Sababi maxsuloti raqobatdosh bo‘lgan o‘zi ham raqobatdosh bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligi maxsulotining raqobatdoshligi ikki asosiy omilga, ya’ni maxsulotni tannarhiga va uni sifatiga asoslanadi.

Iqtisodiy samaradorlikga ta’sir etuvchi omillar :





Qishloq xo‘jaligi maxsuloti raqobatdoshligini oshirilishi mos holda uni iqtisodiy samaradorligining keskin oshirish uchun zarur bo‘lgan shart- sharoitlarni yaratib beradi. Ma’sulyati cheklangan jamiyatini iqtisodiy samarodorligining asosiy yakunlovchi ko‘rsatkichi bo‘lgan rentabelligini optimal darajaga qo‘tarishsh ishlab chiqarishni inovatsion asosda modernizatsiyalash jarayonini amalga oshirilishini taqozo etadi. Bunda asosiy e’tiborni intensiv omillardan, foydalanishga qaratish lozim.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash uni texnik va texnologik jixatdan tubdan yangilanishi jarayoni bo‘lib, unga bir birlari bilan o‘zviy bog‘liq bo‘lgan uch yo‘nalish, ya’ni ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jixozlash, tarkibiy jixatdan texnik-texnologik qayta to‘zish va ishlab chiqarishni ma’naviy jixatdan yangilash asosida erishiladi.

Modernizatsiyalashning eng asosiy vazifasi ilm-fanga va yuqori texnologiyalarga asoslangan industrial tarmoqqa aylantirish asosida uni raqobatdoshligini muntazam oshirib borilishini taminlashdir. Modernizatsiyalash jarayoni nafaqat qishloq xo‘jaligiga yangi texnika va texnologiyalarni joriy etilishini balki axborot resurslarini qayta ishlab inovatsiyalarga aylantira olishga qodir bo‘lgan sifat jixatdan yangi kadrlarni shakillanishini ham taqozo etadi. Modernizatsiyalash inovatsion jarayon bilan o‘zaro o‘zviy bog‘liqlikda amalga oshirilishi zarur. Sababi modernizatsiyalashning samaradorligi uni amalga oshirilishi jarayonida inavatsion texnologiyalarni qo‘llanilishi darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Ma’sulyati cheklangan jamiyatga paxta yetkazib beruvchi fermer xo‘jaliklarini modernizatsiyalashning asosiy yo‘nalishlariga quyidagilar kiradi:

- moddiy – texnika bazasini mustaxkamlash asosida yangi texnika va samarali texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish;
- mexnat jamoalarining kasbiy tayyorgarligini yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga samarali joriy eta olish darajasiga ko‘tarish;
- xodimlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish asosida, ularni kamida 6- 8 ta qo‘shimcha kasblarga ega bo‘lishlarini taminlash;
- raxbar va mutaxassislarning iqtisodiy, huquqiy va texnik – texnologik soxalardagi tayyorgarligini talab darajasiga ko‘tarish;
- ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish;

- yerni meliorativ holatini yaxshilash va tuproq unumdorligini oshirish;
- ishlab chiqarishga to‘g‘idan – to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish;
- ishlab chiqarishni barqaror rivojlanishini ta’minlash;
- mahsulot raqobatdoshligini keskin oshirish.

Ma’sulyati cheklangan jamiyatiga maxsulot yetkazib beruvchi fermer xo‘jaligini modernizatsiyalash asosida uni raqobatdoshligi keskin ko‘tarish ishlab chiqarishni iqtisodiy samaradorligini optimal darajaga ko‘tarish imkoniyatlari yaratiladi.

Ma’sulyati cheklangan jamiyatiga maxsulot yetkazib beruvchi fermer xo‘jaligi iqtisodiy samarodorligini optimal darajaga ko‘tarilishini taminlash uchun yuqorida ko‘rsatilgandek u o‘zining istiqoblli dasturini ishlab chiqib bu soxadagi barcha ishlarni uni asosida tashkil etishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda asosiy e’tiborni maxsulot raqobatdoshligini oshirishga qaratish lozim. Sababi modernizatsiyalash xozirgi sharoitida samaradorligini optimal darajaga ko‘tarishshning hal qiluvchi omiliga aylandi.

XULOSA. Korxona faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirish, xo‘jalik yuritishning bozor tizimi hamda har qanday davrning muhim talabidir. Samaradorlik istalgan korxonaning iqtisodiy barqarorligi va faoliyat yuritish qobiliyatini aks ettiradi. Har qanday ishda, jumladan, korxonalar faoliyatida samaradorlikning, ijobiy natijalarning mavjud bo‘lmasligini, sodda qilib aytganda, ovoragarchilik, vaqt, kuch va resurslarni yo‘qotish bilan izohlash mumkin. Fan-texnika taraqqiyoti korxonalarning ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib kelgan va hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Mazkur omildan quyidagi yo‘llar bilan foydalanish mumkin:

- ishlab chiqarish va mehnatni mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish hamda majmua ravishdagi mexanizatsiyalashtirish;

-asosiy texnologik jarayonlarni robotlashtirish;

-progressiv, mehnat hamda resurslarni tejashga yo‘naltirilgan texnologik jarayonlarni amaliyotga kiritish va ulardan keng foydalanish;

- xom ashyo va materiallar (mehnat predmetlari) zamonaviy turlarini yaratish va ulardan foydalanish;

- ishlab chiqarishni tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, hisoblash texnikasidan foydalanish;

- ishlab chiqarish va mehnatni ilmiy tashkil qilish. Amaliyotda fan-texnika taraqqiyotining, jumladan, uning tarkibiy qismlarining ahamiyati va rolini inkor qiluvchi yoki tushunmovchi korxonani topish qiyin xisoblanadi.

Biroq ushbu omilni amalga oshirish uchun faqatgina xohish va istaklarning o‘zigina etarli emas. Buning uchun

birinchidan, fan-texnika taraqqiyotining ayni paytda zarur bo‘lgan yo‘nalishlarini izlash va aniqlash,

ikkinchidan, pul mablag‘larini va boshqa zarur bo‘lgan resurslar (investitsiyalar) izlab topish,

uchinchidan, zamonaviy ilmiy-texnikaviy ishlamalarga ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot institutlari, konstruktorlik, texnologik va boshqa ilmiy muassasalar bilan kerakli aloqalarni “bog‘lash”,

to‘rtinchidan, o‘z ilmiy-texnikaviy maqsadlarining samaraliligini hisoblab chiqish talab qilinadi.

Shu sababli barcha turdagi resurslardan samarali foydalanish va ayniqsa ishlab chiqarishning barcha bo‘g‘inlarida tejamkorlikka rioya qilish har bir korxona faoliyatining muvaffaqiyat qozonishining garovi hisoblanadi.

Respublika qishloq xo‘jaligida islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda va bu borada quyidagilarga erishildi: agrar sektorda rejali iqtisodiet barham topdi va bozor munosabatlari shakllantirildi; bugungi kunda agroiqtisodiyot yalpi mahsulotining asosiy qismi fermer va dehqon xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Jahon qishloq xo‘jaligi faoliyatini yuritish tajribasi fermer xo‘jaliklarining boshqa xo‘jalik shakllariga nisbatan bir qancha afzalliklarini ko‘rsatdi. Shu sababli hukumat tomonidan mazkur xo‘jaliklarni rivojlantirish har tamonlama qollab-quvvatlanmoqda va bunday ustuvorlik berilishi chuqur o‘ylangan agrar siyosatning natijasi xisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31martdagi “Oziq-ovqat xavfsizligi va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 147-sonli qarori. https://lex.uz/uz/ docs/5933102. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.04.2022 y., 09/22/147/0255-son.
2. A.A.Abdug‘aniyev, A.Abdug‘aniyev. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti (darslik). Toshkent, 2010.
3. O.Zokirov, A.Abdullaev, Sh.Zokirov. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. (o‘quv qo‘llanma). Andijon, 2002.
4. A.Ismoilov, O.Murtazayev. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti (darslik). T.: 2002
5. B.S. Rakhmonova**.** Directions for increasing investment activity in the field of walnut growing and processing at the national and regional levels. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. july, 2022-7. ISSN 2181-9750. 24-29 bet http://khorezmscience.uz/uz (08.00.00. №22)
6. B.S. Rakhmonova**.** Ways of perspective development of walnut production in Andijan region. // Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. december, 2020-vii. ISSN 2181-9750 23-31 bet http://khorezmscience.uz/uz (08.00.00. №22)